



**O'ZBEKISTONDA "YASHIL IQTISODIYOT" NI
RIVOJLANTIRISH SALOHIYATIDAN SAMARALI
FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

26-aprel 2024-yil

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
ПЕРСПЕКТИВЫ И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОТЕНЦИАЛА
РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ» В УЗБЕКИСТАНЕ**

26 апреля 2024 года

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
PERSPECTIVES AND REGIONAL FEATURES OF THE
EFFECTIVE USE OF THE POTENTIAL OF THE
DEVELOPMENT OF THE "GREEN ECONOMY" IN
UZBEKISTAN**

April 26, 2024

Buxoro

“O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish salohiyatidan samarali foydalanish istiqbollari va mintaqaviy xususiyatlari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiysi to‘plami. 2024-yil 26-aprel: - Buxoro : “Sadiddin Salim Buxoriy” Durdon Nashriyoti, 2024.- 460 b.

1. Qo`yidagi tarkibdan iborat dasturiy qo`mita

- | | |
|---------------------|---|
| 1. O.X. Xamidov | – Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais; |
| 2. T.X.Rasulov | – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini; |
| 3. A.T.Jo`rayev | – Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor,i.f.n, a`zo; |
| 4. D.Sh. Yavmutov | – Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.n, dotsent, a`zo; |
| 5. B.N. Navruz-Zoda | – Marketing va menejment kafedrasi professori, i.f.d.,psofessor, a`zo; |
| 6. N.S.Ibragimov | – Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrasi mudiri, i.f.d., professor, a`zo; |
| 7. A.J. Abdullayev | – Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, i.f.f.d., professor, a`zo; |
| 8. S.S.Davlatov | – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi mudiri v.v.b., a`zo; |
| 9. M.A. Oripov | – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi dotsenti, i.f.n., a`zo; |
| 10 X.R.Turobova | – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi dotsenti, i.f.f.d, a`zo; |

2. Qo`yidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo`mita

- | | |
|--------------------|--|
| 1. T.X.Rasulov | – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais; |
| 2. D.Sh. Yavmutov | – Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.n, dotsent, rais muovini; |
| 3. O` U.Rashidov | – Moliya va iqtisodiyot ishlari bo‘yicha prorektor, a`zo; |
| 4. F.N.Nurulloyev | – Ilmiy tadqiqod va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig’i, a`zo; |
| 5. N.S.Ibragimov | – Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrasi mudiri, i.f.d., professor, a`zo; |
| 6. A.J. Abdullayev | – Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, i.f.f.d., professor, a`zo; |
| 7. S.S.Davlatov | – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi mudiri v.v.b., a`zo; |
| 8. M.A. Oripov | – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi dotsenti, i.f.n., a`zo; |
| 9. X.R.Turobova | – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi dotsenti, i.f.f.d, a`zo; |
| 10. S.S.Ro’ziyev | – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi katta o‘qituvchisi, i.f.n, a`zo; |
| 11. F.K.Saidova | – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi katta o‘qituvchisi, a`zo; |
| 12. A.D.Qudratov | – Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi katta o‘qituvchisi, a`zo; |

Mazkur to‘plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g‘oyalalar mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o‘zlari mas’uldirilar.

**1-sho‘ba. YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING
GLOBAL VA MINTAQAVIY: MUAMMO, MODEL VA
MEXANIZMLARI**

**1-SECTION. GLOBAL AND REGIONAL
PROBLEMS, MODELS AND MECHANISMS OF
TRANSITION TO GREEN ECONOMY**

**1-СЕКЦИЯ. ГЛОБАЛЬНЫЕ И
РЕГИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕХОДА К
ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ:
ПРОБЛЕМЫ, МОДЕЛИ И МЕХАНИЗМЫ**

**O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY
YO’NALISHLARI**

Ma’lumki bugungi kunga kelib, insoniyat kelgusi o’n yillikda iqlim o’zgarishi, tabiiy resurslar taqchilligi, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi kabi juda dolzarb muammolarga duch kelishni boshladи.

Ushbu tizimli global inqirozlarning barchasi o‘zaro bog‘liqligi ularni alohida-alohida hal etib bo‘lmasligi, shuningdek, an’anaviy iqtisodiy yondashuv ushbu muammolarning yechimiga qaratilgan ham ekologik, ham ijtimoiy maqsadlarning muvozanatini ta’minlay olmasligi ta’kidlanadi.

An’anaviy iqtisodiy yondashuv ortiqcha iste’mol qo‘llab-quvvatlanishi, ijtimoiy qamrov sustlashishi hamda tabiiy resurslarning keskin kamayishiga olib kelsa, “yashil” iqtisodiy yondashuv bularni barchasini rad etib, ijtimoiy farovonlikni hamda ekologik barqarorlik muvozanatini ta’minalash uchun xizmat qiladi.

Oxirgi o’n yillikda deyarli barcha mamlakatlarda tabiiy resurslardan foydalanishning hamda atrof-muhitga salbiy ta’sirni oshirmasdan iqtisodiy farovonlikni ta’minalashga qaratilgan shunday “yashil” iqtisodiyotga urg‘u berish tendensiyasi kuzatilmoqda.

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiysi ko‘pgina mamlakatlar uchun strategik ustuvor vazifa sifatida yuzaga chiqmoqda. “Yashil” iqtisodiyot qayta tiklanuvchi energiya, yashil bino-inshootlar, barqaror transport, suv va yer resurslari hamda qattiq maishiy chiqindi boshqaruvi kabi sektorlardan iboratdir.

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jadallahgan va O’zbekiston yangi taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘ymoqda, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ta’limiy, ilmiy muhitning o‘zi esa ancha murakkab va serqirra bo‘lib bormoqda.

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minalash uchun barcha sohalarda “yashil” iqtisodiyot texnologiyalarini faol joriy etish 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi vazifalari doirasidagi maqsadlardan biri.

Unda “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish, respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyati rivojlantirish, shuningdek, ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan mexanizmlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Ma’lumki, O’zbekiston uglevodorod energiyasi – neftъ, gaz, ko‘mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yo‘qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning salkam yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash katta mablag‘ni talab qiladi. Buning o‘rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali hisoblangan “yashil energetika”ga o‘tish ming chandon afzal. E’tiborlisi, O’zbekiston Markaziy Osiyo davlatlaridan birinchi bo‘lib mazkur harakat qo‘shildi.

“Yashil iqtisodiyot” faqat energetika sohasini isloh qilishdan iborat emas. Uning ichiga toza ichimlik suvi muammolari, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligidagi innovatsiyalar, barqaror shaharlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o‘rmon hududlarini kengaytirish, cho‘llanishni qisqartirish kabi ko‘p qirrali va keng tarmoqli chora-tadbirlar kirib ketadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan dunyoda va alohida mamlakatlarda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va “yashil” o‘sishga o‘tish holatini baholash imkonini beruvchi turli ko‘rsatkichlar to‘plamlari ishlab chiqilgan bo‘lib, amaliyotda qo‘llanib kelinmoqda.

Xususan, bugungi kunda dunyo bo‘yicha “yashil” iqtisodiyot samaradorligini baholaydigan Global “yashil” iqtisodiyot indeksi (Global Green Economy Index – GGEI) hamda “Yashil” o‘sish indeksi (Green Growth Index – GGI) kabi xalqaro reyting ko‘rsatkichlari keng qo‘llanilmoqda. GGEI reyting ko‘rsatkichi 2010-yildan boshlab e’lon qilina boshlangan bo‘lsa, oxirgi marta 2018-yilda jami 130 ta mamlakatlar bo‘yicha baholash natijalari taqdim qilingan.

Keyingi keng qo‘llanilib kelinayotgan ko‘rsatkich “Yashil” o‘sish indeksi (GGI) hisoblanadi. Ushbu indeks barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals), Parij iqlim bitimi majburiyatları, Aichi bioxilma-xillik maqsadlari (Aichi Biodiversity Targets), shuningdek, resurslardan samarali va barqaror foydalanish, tabiat mulklarini himoyalash, “yashil” iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy qamrov kabi “yashil” o‘sish yo‘nalishlari bo‘yicha mamlakatlardagi holatni baholaydi.

“Yashil” o‘sish indeksi 4 ta maqsadli yo‘nalish, 16 ta kategoriyalar hamda 36 ta indikatorlardan iborat bo‘lib, doimiy tarzda hamda barcha davlatlarni qamragan holda yuritib kelinadi.

“Yashil” o‘sish indeksiga ko‘ra, Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar eng yuqori “yashil” o‘sish ko‘rsatkichlariga ega. Eng quyida esa Zimbabve, Jazoir, Nigeriya va Niger kabi

Afrika mamlakatlari o‘rin egallagan. MDH davlatlari ichida Gruziya, Markaziy Osiyo mintaqasida Qirg‘iziston mazkur reyting bo‘yicha yuqori o‘rindagi ko‘rsatkichlarni qayd etgan.

O‘zbekiston Osiyo davlatlari ichida 33-o‘rinda qayd etilgan. Mamlakatning mazkur indeksda “Ijtimoiy qamrov” (Social inclusion) hamda “Tabiiy kapital himoyasi” (Natural capital protection) ko‘rsatkichlari nisbatan yaxshiroq bo‘lsa, “Resurslardan samarali va barqaror foydalanish” (Efficient and sustainable resource use), “Yashil” iqtisodiy imkoniyatlar (Green economic opportunities) yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlarni yanada yaxshilash imkoniyati mavjud.

Xususan, O‘zbekistonda 2019-2030 yillarda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish kontseptsiyasi qator vazifalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, energiya samaradorligi ko‘rsatkichini ikki karra oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish, ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining yigirma besh foizidan ko‘prog‘iga yetkazish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiya bilan ta‘minlash ko‘zda tutilgan. U 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil o‘sishni ta‘minlash bo‘yicha Harakatlar rejasini qabul qildi, u yashil, barqaror va iniklyuziv rivojlanishga erishish uchun mavjud ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistonning Iqtisodiy taraqqiyot va qashshoqlikni qisqartirish vazirligi hamda boshqa davlat idoralari bilan hamkorlikda Jahon bankining yaqinda tayyorlangan hisobotida mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi muammolari va imkoniyatlari tahlil qilingan.

U eng dolzarb ekologik va boshqa xavflarni aniqlaydi, shuningdek, siyosatga o‘zgartirishlar va harakatlarni tavsiya qiladi. Ulardan ba’zilari energiya samaradorligi bo‘yicha chora-tadbirlar va landshaftlarni tiklash dasturlari kabi bir vaqtning o‘zida iqtisodiyot va atrof-muhitga foyda keltiradi.

O‘zbekiston resurslarni boshqarishni yaxshilashiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatning resurs samaradorligi Yevropa Ittifoqi va boshqa yuqori o‘rtalarni mamlakatlarnikidan ancha past.

O‘zbekistonda suvdan foydalanish, ayniqsa, samarasiz, mamlakatning yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan qariyb uch baravar va qo‘shni Qozog‘istonnikidan ikki baravar yuqori.

Mamlakatning qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan iqtisodiyoti va aholi zinch joylashgan hududlarda havoning bosqichma-bosqich yomonlashishini hisobga olgan holda, uning eng dolzarb yashil ustuvorliklari havo sifatini yaxshilash, yer va suvdan barqaror foydalanish bo‘ladi.

Bunga landshaftni tiklash, suvni samarali boshqarish va havo ifloslanishini kamaytirish choralarini orqali erishish mumkin.

Yerdan barqaror foydalanish O‘zbekistonda kengayishi kerak bo‘lgan muhim amaliyotdir. Iqlimga asoslangan qishloq xo‘jaligi amaliyotlari erdan foydalanish barqarorligini yanada oshiradi.

Suv narxlarini belgilash va sug‘orish uchun investitsiyalar orqali suvdan foydalanish samaradorligini oshirish eng katta ustuvor vazifa bo‘lishi kerak, suvdan foydalanishning ma’lum chegaralari ushbu yangi ustuvorliklarning bir qismidir.

Kam uglerodli oqiloni siyosat O‘zbekistonda kam uglerodli energiya va energiya samaradorligiga o‘tish uchun zarur rag‘batlarni beradi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon bankining uglerod narxini baholash vositasi tahlili shuni ko‘rsatadi, O‘zbekistonda uglerod narxi qo‘shimcha fiskal daromad sifatida YMning 5 foizigacha bo‘lishi mumkin, bu yashil loyihalarni moliyalashtirish yoki uy xo‘jaliklariga iqtisodiy ta’sirni yumshatish uchun ishlatilishi mumkin.

Bundan tashqari, ish o‘rinlarini yaratish va resurslarni qayta joylashtirish strategiyalari yashil o‘tishning ba’zi ijtimoiy xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Global yashil o‘tish yangi ish o‘rinlari yaratish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash uchun katta imkoniyatlar yaratadi va O‘zbekiston bu imkoniyatlardan foydalanish uchun yaxshi mavqega ega.

Ish joylari va atrof-muhit natijalarini optimallashtiradigan sohalar qatoriga sog‘liqni saqlash, ta’lim, moliya va iqlimga mos konchilik kiradi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish muvaffaqiyatini ta‘minlash uchun davlat sektori va yashil moliyani jalb qilish juda muhimdir.

Bu orqali 2022-2026-yillarda sanoat tarmoqlarida 3,9 milliard kub metr tabiiy gazni, 4 milliard kilovatt soat elektr energiyasini va 21 ming tonna neft mahsulotlarini tejash rejalashtirilmoqda. Buning natijasida har bir mahsulot tannarxida energiya ulushini 20 foizga kamaytirish maqsad qilingan.

O‘zbekistonda ham, boshqa mamlakatlarda ham ekologik dasturlarni amalga oshirishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan oddiy fuqarolarga bog‘liq. Yuqorida nazarda tutilgan yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning bir qancha chora-tadbirlari orqali mamlakatimiz nafaqat iqtisodiy samaradorlikka erishish, balki fuqarolarning sog‘ligilagini saqlash, atrof-muhitni saqlash va ekologik xavfsizlikni

ta'minlash uchun samarali va mustahkam muhit yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa inson salomatligi, texnologiyalar va innovatsiyalar uchun qo'llaniladigan katta imkoniyatlarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF- 158-sod
2. Narziyeva D. M. The Experience of the Countries of the World on the Development of the Stock Market. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) 3 (12), 37-40
3. Abdullayevna, Q. Z., Anvarovich, Q. A., & Muxtorovna, N. D. Theoretical foundations of enhancing the competitiveness of the national economy. Gwalior management academy, 87, 54.
4. Narzieva, D. M., & Kudratov, A. D. (2021). the importance of digitalization of the economy and priorities in Uzbekistan. World Economics and Finance Bulletin, 2(2), 9-13.
5. Bebulovna, Boltayeva Shaxnoz. "ATROF-MUHITNING IFLOSLANISHI VA INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI." SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH 2.17 (2024): 10-12.
6. Narziyeva D. M. The Experience of the Countries of the World on the Development of the Stock Market

BuxDu Iqtisodiyot va turizm fakulteti

Iqtisodiyot kafedrasini o'qituvchisi

Azimov Olimjon Orifovich

Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
yo'nalishining 1-bosqich talabasi talabasi

Ismigul Abdusakimova

"YASHIL IQTISODIYOT" NI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

O'zbekiston "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish salohiyatidan samarali foydalanish istiqbollari va mintaqaviy xususiyatlari yanaqtirilgan ekologik resurslar, energiya samaradorligini oshirish, toza energiya iste'molini kengaytirish, yorug'lik sifatini oshirish, toza suv va havo resurslarini saqlash, texnologik innovatsiyalarni kengaytirish, yashil yig'ilish va transport tizimlarini rivojlantirish, ekologik turizmni kengaytirish, ekologik ta'minotni oshirish va o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga e'tibor beradi.

Bu istiqbollar O'zbekistonda ijtimoiy iqtisodiyotni yashirish va o'zining ekologik rivojlanishini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan. Yashil iqtisodiyotning samarali foydalanish istiqbollari O'zbekistonning orzularini qamrab oladi va davlatning xususiyatlari, resurslari va ekologik muhiti hisobga olgan holda rivojlanishini ta'minlaydi.

Mintaqaviy xususiyatlarga kelib qaytadigan bo'sak, O'zbekiston o'zining unikal geografik joylashuviga va tabiiy resurslarga ega bo'lganligi sababli yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rivojlanish potensialiga ega. Mamlakatning boyliklari, sud-havozoning oliv sifati, zararkunandalar va to'qimalar, tabiiy turizm ob'ektlari kabi imkoniyatlarni o'z ichiga oladi. Bu mintaqaviy xususiyatlar yashil iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga o'zaro bog'liqlikni o'rnatadi va O'zbekistonda ekologik turizm, texnika-texnologik innovatsiyalar va yashil energiya sohasida rivojlanish imkoniyatlarini oshiradi.

Bular hammasi O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish salohiyatidan samarali foydalanish istiqbollari va mintaqaviy xususiyatlari haqida umumiy tasavvur beradi. Bu yo'nalishlar mamlakatning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan harakatlardir."

O'zbekistonda Yashil iqtisodiyotga o'tishning global va mintaqaviy muammo, model va mexanizmlari:

O'zbekistonda Yashil iqtisodiyotga o'tishning muammolari:

1. Ekologik muhitning yomonlashishi: O'zbekistonda suv resurslarining katta qismini o'zida saqlab qolish, yer quyishlar va yer osti suvlarining kuchayishiga olib keladigan muammolar mavjud. Bu, ekologik muhitning yomonlashishi va tabiiy resurslarning samarali ishlatalishida muammolarni yaratadi.

2. Energiya iste'moli va ishlab chiqarish sohasidagi muammolar: O'zbekistonda hali ham fosil yakitlar, masalan, gaz, neft va tugun, ko'plikda ishlataladi. Bu esa katta miqdordagi atmosfera gazlarini chiqarish bilan bog'liq bo'lib, iqlim o'zgarishiga olib keladi.

3. Kishilarning ekologik xavfsizlik va so'nggi zaxiralalar muammosi: Kimyoviy moddalar, oziq-ovqat moddalarini va yirik hayvonlarning moddalarini kabi kimyoviy moddalar, ekologik muhitga ta'sir qilishi

МУНДАРИЖА

| | |
|---|--|
| 1-sho‘ba. YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING GLOBAL VA MINTAQAVIY: | |
| MUAMMO, MODEL VA MEXANIZMLARI..... | 3 |
| O.X.Xamidov. O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi strategik maqsadlar va islohotlar samaradorligi | Ошибка! Закладка не определена. |
| D.Sh.Yavmutov. Yashil iqtisodiyot konsyepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi | 7 |
| Рахматулла Эргашев, Зафар Мирзаев. Факторы, влияющие на экономический рост промышленных предприятий..... | 10 |
| Obidjon Khamidov, Dilshod Yavmutov, Sardorjon Burkhanov. The efficiency of green economy in the national economy of Uzbekistan and as an important factor of sustainable economic growth..... | 14 |
| Бирюков Валерий Викторович. О перспективах интеграции зеленых экономик в рамках ЕАЭС... | 17 |
| A.T.Jo’rayev. Aylanma iqtisodiyotni joriy qilish xususiyatlari | 21 |
| Кочкина Г.А., Магадиева А.Ж. Государственно-частное партнерство в рамках зеленой экономики Казахстана..... | 22 |
| Ахмедов К. Некоторые аспекты финансового состояния промышленного предприятия..... | 28 |
| Nutfillo Salimovich Ibragimov, Bekzod Sherzodovich Sharipov. Dunyo mamlakatlarida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari va milliy modelni ishlab chiqish mexanizmlari | 31 |
| Дарибеков С.С., Дарибекова Н.С. Зеленая экономика: ключевые принципы и возможности в предпринимательстве..... | 36 |
| S.S.Davlatov. O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish sharoitida barqaror va inklyuziv urbanizatsiyani qo‘llab-quvatlash..... | 41 |
| Rauandina Guldarai Kalkenovna. Green construction in Kazakhstan..... | 44 |
| Agzamov Avazxon Talgatovich, Saidmuratova Iroda Abdullayevna. Yashil iqtisodiyotga o‘tishning global va mintaqaviy muammolari..... | 45 |
| B.I.Adizov. Yashil iqtisodiyot aoslangan hududlar va sohalarda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, bandlik va ta’limni rivojlantirish..... | 49 |
| R.S.Xoliqova. Yashil iqtisodiyotga o‘tishning tashkiliy va huquqiy mexanizmlari | 50 |
| Хошимов П.З. Ўзбекистонда “Яшил иқтисодиёт”ни шакллантириш хусусиятлари..... | 52 |
| A.D.Ravshanov, O.Amirqulov. Qishloq xo‘jaligini “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlantirish yo‘llari | 55 |
| Самиева Гулноза Тохировна. Ўзбекистонда органик қишлоқ хўжалигини ривожлантириш – “яшил иқтисодиёт” асосидир | 57 |
| Qambarov Sanjar Sodiq o‘g‘li, Muxiddinov Nasimbek Raxim o‘g‘li. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot (rivojlangan davlatlar tajribasi) | 61 |
| Toymbayeva Dilnoza Abdijabbor qizi. Yashil iqtisodiyot kontsepsiysi, uning samaradorligi va rivojlanish strategiyalari | 63 |
| Aliqulov Humoyun Tohir o‘g‘li. “Yashil iqtisodiyot” – kelajak iqtisodiyoti | 66 |
| Saidova Feruza Kamolovna, Fatilloyev Farrux Farhod o‘g‘li. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o‘tishning global va mintaqaviy muammolari..... | 67 |
| Narzullayeva Gulchehra Salimovna. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish yo‘llari | 69 |
| Azimov Olimjon Orifovich, Durqiqilichova Ruxshona Maxkamovna. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotini rivojlantirish salohiyatidan samarali foydalanish istiqbollari va mintaqaviy xususiyatlari..... | 72 |
| Narziyeva Dilafiruz Muxtorovna. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari..... | 74 |
| Azimov Olimjon Orifovich, Ismigul Abduxakimova. "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari..... | 76 |
| Эргашев Миржон Ёрқин ўғли. Мамлакат ташқи савдоси статистикасини шаклланиш жараёнлари ва уни такомиллаштириш йўллари | 80 |
| Кайимова З.А., Хикматов А. Приоритетные направления Узбекистана: переход к «зеленой экономике»..... | 84 |
| Amonov S.Z., Raxmonov Rustam. Yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari va ustuvor xususiyatlari | 86 |
| Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi. O‘zbekistonni “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonida ichki bozor konyunkturasining o‘zgarshi | 87 |
| Toymbayeva Dilnoza Abdijabbor qizi, Altibayeva Muxayyo Begimqulovna. “Yashil iqtisodiyotni ”ni rivojlantirish yo‘nalishlari | 88 |